

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

Doimiy aholi soni.

Buxoro viloyati doimiy aholisi soni 2020- yil 1- oktabr holatiga 1939,6 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 15,7 ming kishiga yoki 0,8 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 713,8 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 36,8 %), qishloq aholisi soni 1225,8 ming kishini (63,2 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2020- yil yanvar-sentabr

Aholi soni **15,7 ming kishiga** ko'paydi.

Tirik tug'ilganlar soni **29,9 ming nafarni** tashkil etdi.

FHDYO bo'limlarida **9,3 mingta nikoh** va **1,1 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Buxoro viloyatidagi demografik ko'rsatgichlar

(2020- yil yanvar-sentabr oylarida)

Tirik tug'ilganlar
29,9 ming kishi

Nikohlar
9,3 ming birlik

Nikohdan
ajralishlar
1,1 ming birlik

Ko'chib kelganlar
2,9 ming kishi

Ko'chib ketganlar
9,4 ming kishi

Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi


	2019- yil	2020- yil*	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Buxoro viloyati	1 916,0	1939,6	101,2
Buxoro sh.	279,5	280,8	100,5
Kogon sh.	61,0	61,5	100,8
tumanlar:			
Olot	98,6	99,8	101,2
Buxoro	165,3	167,9	101,6
Vobkent	138,9	140,8	101,4
G'ijduvon	302,2	306,0	101,3
Kogon	77,5	79,0	101,9
Qorako'l	163,2	164,5	100,8
Qorovulbozor	18,2	18,4	101,1
Peshko'	121,9	123,9	101,6
Romitan	140,3	143,0	101,9
Jondor	173,2	175,7	101,4
Shofirkon	176,2	178,3	101,2

Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020- yil 1- oktabr holatiga eng ko'p aholi soni G'ijduvon tumanida 306,0 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 15,8 % ni) va Buxoro shahrida 280,8 ming kishini (14,5 %), aksincha eng kam aholi soni Kogon shahrida 61,5 ming kishi (3,2 %) va Qorovulbozor tuumanida 18,4 ming kishini (0,9 %) tashkil etdi.


Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2019- yilning mos davriga nisbatan Kogon tumanida 1,9 %ni, Romitan tumanida 1,9 % ni, Peshko' tumanida 1,6 % ni, Buxoro tumanida 1,6 %, Vobkent va Jondor tumanlarida 1,4 % ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Qorako'l tumanida va Kogon shahrida 0,8 % ni, Buxoro shahrida 0,5 % ni tashkil etdi.

Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2020- yil 1- oktabr holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo'linishi (2020- yil 1- oktabr holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)




Demografik holat

Jinsi bo'yicha doimiy aholi sonining bo'linishi (2020- yil 1- oktabr holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)

	erkak	ayol
Buxoro viloyati	971,5	968,1
Buxoro sh.	139,6	141,2
Kogon sh.	29,9	31,6
<i>tumanlar:</i>		
Olot	50,0	49,8
Buxoro	84,3	83,6
Vobkent	70,8	70,0
G'ijduvon	156,3	149,7
Kogon	39,1	39,9
Qorako'l	81,2	83,3
Qorovulbozor	9,1	9,3
Peshko'	62,0	61,9
Romitan	72,4	70,6
Jondor	86,9	88,8
Shofirkon	89,9	88,4

Hududlar kesimida aholi zichligi (2020- yil 1- oktabr holatiga, 1 kv. km.ga to'g'ri keladigan aholi)



Demografik holat

Tug'ilish. 2020- yilning yanvar-sentabr oylarida 29,9 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 20,7 promilleni tashkil etib, 2019- yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega kamaygan (2019- yilning yanvar-sentabr oylarida 20,9 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2019- yilning mos davriga nisbatan Buxoro shahrida (17,5 promilledan 19,0 promillega), G'ijduvon tumanida (22,1 promilledan 22,5 promillega), Romitan tumanida (21,0 promilledan 21,2 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish Buxoro tumanida (19,4 promilledan 18,2 promillega), Kogon tumanida (22,9 promilledan 22,5 promillega), Olot tumanida (21,9 promilledan 21,1 promillega) Qorako'l tumanida (22,9 promilledan 22,5 promillega) va Peshko' tumanida (21,8 promilledan 21,1 promillega) kuzatildi.


Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Qiz bolalar:
14,3
ming nafar

O'g'il bolalar:
15,6
ming nafar

**Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti
(2020- yil yanvar-sentabr)**



Demografik holat

Buxoro viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi
(yanvar-sentabr)

	2019 y.	2020 y.	O'sish sur'ati %da
Buxoro viloyati	29719	29903	100,6
Buxoro sh.	3657	3992	109,2
Kogon sh.	846	871	103,0
<i>tumanlar:</i>			
Olot	1604	1566	97,6
Buxoro	2379	2274	95,6
Vobkent	2283	2165	94,8
G'ijduvon	4978	5121	102,9
Kogon	1319	1321	100,2
Qorako'l	2780	2684	96,5
Qorovulbozor	298	274	91,9
Peshko'	1970	1944	98,7
Romitan	2187	2260	103,3
Jondor	2621	2630	100,3
Shofirkon	2797	2801	100,1

Nikoh.

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 9,3 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 6,4 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2019- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'ati Romitan tumani (105,5 %) va Jondor tumani (106 %) to'g'ri kelmoqda. Qolgan barcha shahar va tumanlarda kamayish kuzatildi. .

Nikohdan

ajralishlar.

2020- yilning yanvar-sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,1 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 0,8 promilleni tashkil etdi.


Ajrimlar soni 2019- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Kogon tumani (104,6 %) va Buxoro tumani (100,9 %) to'g'ri kelmoqda.

Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2020-yil yanvar-sentabr)



Demografik holat

Hududlar kesimida nikohdan ajralganlar soni va koeffitsiyenti (2020- yil yanvar-sentabr)



Buxoro viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik (yanvar-sentabr)

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2019 y.	2020 y.	O'sish sur'ati %da	2019 y.	2020 y.	O'sish sur'ati %da
Buxoro viloyati	10176	9283	91,2	1349	1102	81,7
Buxoro sh.	1604	1309	81,6	415	314	75,7
Kogon sh.	316	283	89,6	60	58	96,7
<i>tumanlar:</i>						
Olot	591	414	70,0	51	41	80,4
Buxoro	792	650	82,1	109	110	100,9
Vobkent	706	679	96,2	67	52	77,6
G'ijduvon	1729	1584	91,6	173	141	81,5
Kogon	381	367	96,3	65	68	104,6
Qorako'l	934	929	99,5	87	67	77,0
Qorovulbozor	97	91	93,8	15	13	86,7
Peshko'	653	525	80,4	56	44	78,6
Romitan	670	707	105,5	87	81	93,1
Jondor	753	798	106,0	81	64	79,0
Shofirkon	950	947	99,7	83	49	59,0

Migratsiya

2020- yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 2,9 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 9,4 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 6,5 ming kishi bo'lib, 2019- yilning mos davrida minus 2,7 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr
Ko'chib kelganlar	4,1	2,9
Ko'chib ketganlar	6,8	9,4
Migratsiya saldosini	-2,7	-6,5

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Buxoro shahri (minus 1764 kishi) va G'ijduvon tumanida (minus 1206 kishi) qayd etildi.

